

O.N.SHOMATOV

**FILOLOGIYANING
ILMIY TADQIQOT
METODLARI**

(MAGISTRATURA 1-KURS UCHUN)

Toshkent - 2009

809.11

15-77

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

O.N.SHOMATOV

FILOLOGIYANING ILMIY TADQIQOT
METODLARI

O'quv qo'llanma

Ushbu qo'llanma fannig asosiy tamoyillari, nazariyalari va yo'nalishlariga mufassal tafsif berish, magistratura darajasida tahsil olayotgan hindshunos talabalarni filologiyaning ilmiy tadqiqot metodlariga taalluqli dastlabki ilmiy va muammolar tizimi bilan muttasil va tadrijiy ravishda tanishtirib borish maqsadida yaratilgan. Shuning uchun ham ularni ma'lum tartibda, shu maqsadga imkon beradigan tartib asosida tanishtirib boriladi.

Bundan tashqari talabalarga Filologik izlanishlarga oid maxsus atamalar va realiyalar bilan foydalanish uchun eng kerakli ko'nikmalarni kasb etish ahamiyatli ekanligi hamda uning uchun talabalarni jahon filologiyasining eng so'nggi erishuvlari va ulardan kelib chiqadigan amaliy xulosalar bilan tanishtirishni ham mo'ljallab keladi.

Mas'ul muharrir:

Begizova X. – “Janubiy Osiyo tillari” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Tuzuvchi:

O.N.Shomatov – “Janubiy Osiyo tillari” kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

Obidov B. – Beruniy nomli sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi

Nurmatov S.S. - “Janubiy Osiyo tillari” kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

KIRISH

Ushbu fanning asosiy maqsadi bakalavriat darajasini bitirib magistrlik dissertasiya ustida ishlashni boshlayotgan talabalarga filologik ilmiy-tadqiqot metodlari bilan tanishtirishdan iborat bo'lib hindshunoslik hamda umumiy tilshunoslik fanida qo'lga kiritilgan eng zamonaviy asarlardagi so'nggi erishuvlarga tayangan holda talabalarda ushbu metodlarni amalda qo'llashga ko'nikma va salohiyatlar kasb etishdir. Ularni amaliy jihatdan til hodisalari asosida tahliliy yondashuv orqali o'zlashtirish hamda darstdan tashqari bo'lgan holda qo'shimcha adapbiyot lar ustida mustaqil ishslashni o'rgatishdan iborat.

Ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim darslari mobaynida ushbu fannig asosiy tamoyillari, nazariyalari va yo'nalishlariga mufassal tafsif berilishi ushbu kursning vazifalaridan biri hisoblanadi.

Dasturni amalga oshirish uchun o'quv rejasida rejalashtirilgan asosiy tilning nazariy muammolari, tilshonslikka kirish maxsus filologiyaga kirish, asosiy o'rganilayotgan til nazariy grammatikasi fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi.

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrha tavsiya etilgan. (Bayonnoma №1. 13.11.2009)

1-Mavzu: Filologiya fanining mazmuni va mohiyati

Darsning o'quv maqsadi: shu fan doirasidagi asosiy muammolar? Uning mazmuni va vazifalari hamda aosiy yondashuvlariga tasavvur kasb etish.

Reja:

- 1.Ushbu fanning mazmuni va vazifalari.
- 2.Asosiy yondashuv, tushunchalar va tarkibiga tegishli muammolar.
3. Matn tushunchasining filologiya uchun ahamiyati.

Tushuncha va tayanch iboralar:

Ilmu-fan, ilmiy tamoyil, funksiya, til, umumiy va maxsus filologiya, metodologiya, lingvistik nazariya, nutq, semiotika, yondashuv, izlanish startegiyasi, maqsad, tizimli metodologiya, metod, lingvistik qo'shimchalik, izlanish ob'ekti, bilish yo'llari, bilish vosistasi, matn, ilmu-fan metodologiyasi.

Filologiya bilimlari bu nafaqat birorta matn mazmunini anglab olish, balki uni talqin qila bilishdan iborat bo'ladi.

Ma'lumki matnni o'rganish uch bosqishni o'z ichiga oladi. 1) ushbu hodisaning kelib chiqishi shart-sharoitlari, muallifligi va auditoriyasi, konspekt mazmuni, uni yaratishga xos shaxsiy tabiyatli va h.k. muammolarni tahlil etish 2) madaniyatning ushbu sohaga kiritilishi, o'rni matnlar mazmuni va til shaklida o'z aksini topadigan boshqa matnlarga munosabatini tadqiq etish. 3) madaniyat taraqqiyoti, bilimlar va nutqiy muloqotning kengayib borishi, matnlarni yaratishdagi texnik peshqadamliklarga nisbatan matnlarni tushunib talqin qila bilishning umumi tarixiy qonuniyatlar.

Umumiy filologiya tamoyillari filologiya tarixida turlicha tushunilardi. Jumladan 19 asr 70-yillari qadar umumiy filologiya barcha turkumdag'i matnlarni tizimlashtirishga intilardi. Chunonchi, matnlarni tasniflash tamoyillarini ishlab chiqishda ularni adabiyot turlariga va qolaversa, shakllariga ko'rta e'tibor berildi.

O'sha davrdan boshlab to 20 asr 30-yillarigacha bunday yondashuvda o'zgarishlar kuzatiladi. Ya'ni matnlarni turlarga tasnif etish tark etilib, birinch'i o'miga adabiyot shakllari haqidagi ta'lilot qoyiladi. Natijada olinmlar deyarli butunlay nutqning poetic shakllariga yopishib, filologiya fani adabiyotshunoslik va tilshunoslik tor doiralariga kiritildi. Shunday qilib, filologlar diqqat-e'tibordan o'ta muhim bo'lgan og'zaki nutqning turli ritorik shakllar, hujjatlар va ilmiy adabiyotlar til uslubiga xos hamda boshqa jiddiy tomonlari chetda qolib ketgan.

Vaholanki, til voqe'ligi nutqning bunday tomonlarini o'rganilishini talab qiladi. Garchi tilshunoslar bularga kirishib, tilning asosan bir tomonini o'rgana boshlagan bo'lsa ya'ni nutq tovushlarini, so'z va gaplarni tavsif etishni, til matnlarni haqidagi ta'lilotni lingvistika qamrab ololmaydigan darajada bo'ladi. Bu ta'lilot esa ijtimoiy-lingvistik amaliyot asosi bo'lib hisoblanadi.

Ammo til rivojlanishi o'z navbatida matnlar haqidagi ta'lilotni oldinga suradiki, bu ta'lilot aslida filologiya bo'lib, uning bir qismigina tilshunoslik

bo'la oladi. Filologiya aslida til xususida dastlabki va boshlang'ich tasavvurni yaratadi. Shu jarayonda filologiya til matnlarining tarkibi va ularning tuzilish qoidalarini qanday tarzda belgilab berishga lingvistik tadqiqot yo'nalishi va mazmuni bog'liq bo'ladi.

Yuqorida berilgan ma'lumotlar professor Y.V. Rojdestvenskiyga¹ tegishli bo'lib, undan farqli o'laroq S.S.Averintsev nazariyasida asosan,² filologiya bu "tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik, manboshunoslik, paleografiya va boshqa gumanitar fanlarning hamdo'stligi bo'lib, bular inson ma'naviy madaniyatini yozma matnlarni tahlil etish orqali o'rganadilar." Rojdestvenskiy singari, bu olim ham matnni filologiyaning boshlang'ich vogeligi deb tushunadi. Matn esa o'zining ichki aspektlari hamda tashqi aloqalarining butun majmuasini qamrab oladigan hodisa. Masalan, Akademik A.Hojiev talqinicha, filologiya bu "biror xalqning til va adabiy ijodida o'z ifodasini topgan madaniyatini o'rganuvchi majmui"³ degan talqinida til va adabiyot ob'ektilariga urg'u beriladi, garchi "fanlar majmui" deb berilgan bo'lsa-da S.S.Averintsev shuni alohida ta'kidlab o'tadiki, shunday qilib, filologiya fanining ichki tarkibi ikki tomonidan iborat bo'lgan holda tushuniladi. Bunda darvoqe ikki qutb ajratiladi-bittasi "matn ustida" kamtarona ish bo'lib, matnning konkretligidan chiqib ketmaslikni talab qiladi. Ikkinchisi esa -chegaralarini aniqlab bo'lmaydigan universallikdir. Uning fikricha, filologiyaning vujudga kelishi yozma sivilizatsiyalarning nisbatan etuk bosqichida kuzatiladi. Shunda ham filologiya fani falsafa fani bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanib keladi, chunki qadimgi Hindiston va Yunonda filologiya tafakkur ustida yoki so'z va nutq ustida fikrlashning falsafiy talqini sifatida yuzaga keladi. Ikkala fanning uyg'unlashgan taraqqiyoti tabiiy bo'lib, ko'pincha falsafaning gullab rivojlanishi ketidan filologiya fanida ham buyuk yutuqlar sodir bo'ladi. Masalan, Yunonda Arastudan so'ng, evropada esa Rene Dekardtan so'ng, vaholanki Germaniyada 19 asrdan so'ng bunday siljishlar kuzatildi.

HIndistonda, masalan, ikkita buyuk grammatica tuzuvchilari shuhrat qozongan edi. Birinchisi, Panini(m.a. 5-4 asr) o'zining "Veda"lar tili grammaticasi bo'lmish shoh asari "Ashtadhyayi" bilan tarixda nom qoldirgan bo'lsa, ikkinchisi Patanjali (m.a. 2 asr) kabi olimlar. "Veda"larning matnnini tahrir qilib turli muhim filologik masalalarini echimini topgan. Uning eng katta asari "Mahabhashya" (Buyuk sharh) sanaladi. Masalan, Patanjalinig aytishicha "Rigveda" to'plami 21, "Yajurveda"-100, "Samaveda"-1000 va "Atharvaveda"-9 marta qayta ko'rib chiqilgan. Ulardan so'ng ijod etgan filologlar uslub muammolari bilan shug'ullangan. Masalan, Vamana va Jayaditya (7 a.), Nagesha(18.a.).

Garchi bunday rivojlanish qadimgi Xitoya ham yuz bergan bo'lsa-da, ammo Ovrupolik olimlar bulardan va shuningdek, hind filologlarining

¹Qarang Ю.В.Рождественский- Введение в общую филологию, М. 1979.

²Qarang C.C.Аверинцев, Филология-ЛЭС, М.2002г с 544-545.

³Qarang Tilshunoslik terminlar lug'ati. Т. 2002, 121 bet.

erishuvlaridan bexabar bo'lib, o'z izlanishlarini qadimgi Yunon epik asarlaridan, Gomerning "Iliada" va "Odisseya"larni maktabda tahlil qilib gboshlashgan. M.a. 5-4 asrlarda yunon ilmu fanida filologiya fanining falsafadan ajralib chiqishi kuzatiladi.

"Matn" tushunchasiga kelganda, A.Hojiev ta'biricha bu "Yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, nutq parchasi, tekst"⁴. T.M.Nikolaeva bergen tartibiga asosan, bu tushuncha "Ma'naviy bog'lanish orqali biriktirilgan belgili birliliklar ketme-ketligi" deb berilgan holda buning asosiy xossalari bog'langanlik va yaxlitlikdir.⁵

Turli fan sohalarida "matn" o'rganilar ekan? Bular o'rtasida, shubhasiz, markaziy o'rnda lingvistika turadi, chunki adabiyotshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik va boshqa filologik fan sohalarida til etakchi o'rinn tutadi. Yuqorida ko'rsatilgan Panini, Arastu, Patanjali, Gomerlarning asarlariini mukammal ravishda ilmiy tadqiq etish uchun tegishli tillar bo'l mish Sanskrit, yunon tillarini va ularning aynan qadimgi shakllarini etarli darajada bilish lozim. Shunda filologik tahlil o'z samaralarini bera oladi.

Hanuzgacha hozirgi ilmu-fan metodologiya mohiyati sifatida tilshunoslik fani uchun falsafa fani hisoblanardi. Garchi bunday tushuncha e'tirozlarga duch kelmasa-da uni bir tomonlama va cheklangan hamda ayni paytda maskuraga bog'lanib qolganligini tan olmasdan turib bo'lmaydi. Hozirgi zamon lingvistika fani uning metodologik asoslarini kompleks ravishda keng va atroficha anglanishini talab qiladi.

Bu masalani echishda metodologiyani falsafiy ta'lilot sifatida an'anaviy tarzda belgilash qo'llaniladi. Binobarin, "tilshunoslik metodologiyasi" deb ko'pincha falsafiy metod tushuniladi.

Kelib chiqish jihatdan ham "metodologiya", ham metod atamalari yunoncha *Methodos*, so'zma so'z tarjima qilganda "biror yo'l-yo'riq" hamda *logos* "ta'lilot, fan, nazariya" so'zlariga borib taqaladi. Shunday qilib bundan chiqdi, metodologiya bu til voqelegini bilish yo'l-yo'riqlari va usullari xususidagi falsafiy ta'lilot (va nazariya dastur) deb tushuniladi.

Tilshunoslik o'z navbatida, butun tarix mobainida falsafa bilan chambarchas bog'lanibkelgan, chunki, har bir tadqiqotchi ikki asosiy falsafiy yo'nalish- materialistik yoki idealistik dunyo qarashlaridan kelib chiqadi. Buning zamirida tilshunoslik predmetining o'ziga xosligiga bog'liq bo'ladi, til insoniy bilishning ratsional (ya'ni maqsadga muvofiq) bosqichining faoliyatini uchun zarur shart sifatidadir.

Jahonni bilishda til faolligi masalasi til falsafasi uhun butunlay yangi emasdир. Bu sohadagi daslabki tajribalar keyinchalikda falsafiy lashtirilib mustaqil ahamiyatga va mazmunga ega bo'lgan falsafiy fanga aylandi.

Savollar:

1. "Ilmiy tamoyil" tushunchasiga izoh bering.

⁴ Qarang o'sha asar? 61b.

⁵ Q.T.M.Nikolaeva, Текст- ЛЭС, М.,2002 С.507

2. Metodologiya nimalarni qamrab oladi?
3. Izlanish strategiyasi nimalardan iborat?
4. "Izlanish ob'ekti" deb nima tushuniladi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Rasulov K.Umumiyl tilshunoslik, Т.,2007
2. Рождественский Я.В. Введение в общую филологию, М. 1979
3. Виноградов В.В. Избранные труды по языкоznанию. Исследования по русской грамматике М.,1975
4. Hojiev A. O'bek tilshunosligining dolzarb muammolari-“O'zbek tili va adabiyoti” 2007y. 1-son, 3-son.

Internet saytlari:

- 1.www.voprosyfilologii
- 2.www.filologicheskiye nauki
- 3.www.voprosyyazikoznaniya

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Filologiya tushunchasi nimalarni qamrab oladi?
- 2.Ilmiy tadqiqot olib boorish jarayoni tasavvurimizda nimalarni talab qiladi?
- 3.Tilshunoslik, adabiyotshunoslik va boshqa sohalarining filologiya doirasidagi o'mini ta'riflab bering.

2-Mavzu: Lingvistik metodologiya tarkibi

Darsning o'quv maqsadi: lingvistik metodologiyaning tarkibiy o'ziga xosligini namoyon etish.

Reja:

1. Hozirgi tilshunoslikdagi metodologik izlanishlar.
2. Metod va metodologiya tushunchalari.
3. Fanning tarixiy rivojlanishida an'anaviy metodlar shakllanishi.

Tushuncha va tayanch iboralar:

Metod tushunchasi, nutqiy faoliyat lingvistikasi, kommunikativ-funksional yondashuv, semasiologik mehanizm, integrative yondashuv, maxsus lingvistik doktrina, tadqiqot predmeti va ob'ektining muvozanati, lingvistik metodologiyaning turi va komponentlari, lingvistik nazariya va model tushunchalari, umumiy yalpi bog'liqlik kategoriysi.

Metodologiya atamasi keng ko'lamdagи tushunchasiga kelsak, bu aslida biror narsa yoki hodisaning strukturasi, mantiqiy tuzilishi va faoliyat vositalari xususidagi ta'lilot deb tushuniladi, vaholanki, lingvistik metodologiya deganda konkret ravishda tadqiqotning maqsadini aniqlashdan tortib xulosa va umumlashtirishlarni shakllantirishgacha bo'lgan turli bosqichlarida tilshunos amal qiladigan boshlang'ich tamoyillar majmuasidir. Shunga ko'ra lingvistik metodologiya ko'lamida uch xil daraja (sath) ajratilishi mumkin.

Bunda V fon Gumboldt taklif qilgan va F. de Sossyr asoslab bergen “til-nutq” qarama-qarshiligi tushunchasi asos bo’lib, til haqidagi zamonaviy etakchi yo’nalishlarga asos slogan edi.

1). Til lingvistikasi.

Buning maqsadi til tizimining qonuniyatlarini va invariant⁶ larni o’rganish. Uning asosiy yo’nalishi semiotik⁷ metodidan iborat bo’lib, o’rganish tamoyili-sistemlik, izlanish yo’rig’i-til strukturasi va ishlashidir.

2). Nutq lingvistikasining ikki ko’rinishi.

a) Nutq lingvistikasi (asosan yozma matn)

b) og’zaki nutqning lingvistikasi. Buning maqsadi bog’langan nutqning qurilish qonuniyatlarini bilib olish. Asosiy yondashuvni-substansional, o’rganish tamaoyili-sintagmatik, izlanish yo’rig’I esa-nutq axborotining strukturasidir.

3) Nutqiy faoliyat lingvistikasi.

Uning maqsadi nutqiy aloqaning turlidara jali tarkibini bilish bo’lib ajratiladi. Buning ko’lamidagi yondashuvlar – kommunikativ funksional bo’lgan holda til orqali aloqani keng lisoniy bo’lmagan aspektida o’rganishni mo’ljallaydi. Buning ko’lamidagi tadqiqot tamoyillari – faoliyatiy (дeятельностный) ishtirokchilikka yo’naltirilgan(эвристический) va eksperimental. Izlanish strategiyasi nutqiy aloqaning pragmatik strukturasi hisoblanadi.

Sistemali metodologiyaning tamoyilini asoslovchi va ta’minlovchi bo’lishi uchun tadqiqotning sirasi sifatida bevosita ta’luqli metodologiya sistemali metodologiyasi metodining ob’ekti, predmeti va birligi hamda lingvistik nazariya va lingvistik paradigma degan tushuncha mohiyatini anglab olish lozim.

Birinchidan, “metod” va “metodologiya” tushunchalarining etimologiyasi ikkala tushunchalarini bir-biridan ajratish ob’ektiv mezonlarga ishora qiladi etarli darajada. Ya’ni “Metod” deganda lingvistik anasoy vazifasi bo’lmish til “hayoti”ning ob’ektiv qonuniyatlarini ochish masalasining echimidagi yo’l, usul yoki vositasi deb tushuniladi. “Metodologiya” deganda esa til voqeligini bilishning asosiy yo’l-yo’riqlariga taaluqli ta’limot nazarda tutiladi.

Lingvistik metodologiyaning eng muhim birinchi komponenti an’anaviy ravishdagi tushunchasiga binoan falsafiy metod bo’lib, bu metod til voqeligini bilish yo’l-yo’riqlarini belgilovchi konkret dunyoqarashdir. Tildagi birlamchi va ikkilamchi hodisalarini talqin qilish, ularni bila olish/bila olmaslik hamda ularni materialistic va idealistik turkumlarga talqin qilish. Bu mezonga ko’ra nafaqat tilning tabiyati yoki mohiyati, uning vujudga kelishi, rivojlanishi va ishlash(vazifalarini bajarish) mehanizmlari, balki lingvistik nazariyalarning belgili(знаковая), kognitiv, kommunikativ, sotsiolingvistik va pragmalingvistik

tushunchalari aniqlanadi. Bularni ayniqsa bevosita leksika, morfologiya, sintaksis, frazemika, so’z yasalish, onomasiologik va semasiologik mexanizmlarni o’rganishda qo’llaniladi. Shunda ba’zi an’anaviy yondashuvlar paydo bo’lishi tabiiy. Jumladan, dialektikada shuhrat qozongan “ziddiyatlar qarama-qarshiligi” qonuniyati kabi til hodisalarining paydo bo’lib rivojlanishi shakllariga lingvistik qo’shimchalik (лингвистическая дополнительность) ya’ni nutqiy hodisalarini yangi til yaxlitlikka birlashuv turkimidagi til jarayonidagi rivojlanishni tezlashtiruvchi ziddiyatlarni bartaraf etishdagi yangi usul. Bynday yondashuv integrativ (birlashtiruvchi) lingvistik nazariyalarni ishlab chiqishda samarali qo’llanilmoxda. Jumladan, frazeologiya, neologiya⁸, so’z yasalish va til tizimining boshqa sohalarida til birliklarining sathlararo o’zaro ko’maklashish(взаимодействие) konsepsiyasida o’z aksini topadi.

Shunday ilmiy tilshunoslikka oid tamoyillar falsafadan tayyor shaklda olinmasdan, aniq lingvistik nazariyani yaratish jarayonida quyidagi strategik metodologiya tamoyillari shakllanib kelgan:

- Tilning sistemaviy-strukturaviy tuzilishi tamoyili.
- Til tizimining turli strukturaviy sathlardagi birliklararo izomorflik tamoyili.
- Til belgiligi tamoyili.
- Til belgisining assimetrik ravishdagi ikki tomonlamalik tamoyili(dualism tamoyili).

Nihoyat, hozirgi lingvistik izlanish metodologiyasining nazariy aspekti quyidagilarni ta’minlab beradi:

- Poyonsiz til koinotida tadqiqot ob’ektini ajratib chiqish.
 - Bevosita tadqiqot predmeti(ya’ni fakti, hodisasi, jarayoni)ni aniqlash.
- Bular o’zaro tur va ko’rinish (родо-видовой) munosabatda turadi. Shunda ob’ektni ajratganda “mening lingvistik mikroskopim ostida nima bo’ladi?” degan savolga javob berilsa, predmetni aniqlaganda ikki muhim narsani anglab olish zarur:
- Nimalar (tarkib, hodisa, jarayon)ni o’rganiladi.
 - Konkret lingvistik modellash doiralarini belgilash zarur. Bulardan kelib chiqqan holda mo’ljallanayotgan tadqiqotning maqsadi va vazifalarini tay’in ravishda aniqlashni talab qiladi.

Shuni alohida ta’kidlab o’tish kerakki, lingvistik nazariya va metodologiya o’zaro ilmiy izlanish mantiqi bilan bog’langan bo’ladi. Boshqacha aytganda, metodologik tamoyillar nazariyaning shakllanishi jarayonida qoliplanadi, nazariyalar esa lingvistik modellashtirishning ilmiy jihatdan asoslangan tamoyillari va strategiyasiga muvofiq ishlab chiqiladi. Shu munosabatda modellashtirish samarasini bo’lgan lingvistik model va lingvistik nazariyani ajrata bilish kerak. Lingvistik model deganda bu tadqiqot maqsadi va vazifalariga asosan tadqiq qilinayotgan til hodisasining xossa va belgilarini mantiqiy qayta tiklanishi bo’lib chiqadi. Bu aslida lingvistik tadqiqotning

⁶ A.Hojevga binoan invariant bu “tilning qurilish birligining (fonema, morfema, leksema va h.k.) nutqdagi muayyan voqelanishidan ajratib, mavhum olingen holati” (o’sha asar, 41-bet).

⁷ Semiotika “Turli-tuman belgilari (ramzlar) tizimining umumiy xususiyatlarini o’rganuvchi fan” (o’sha asar, 87-bet).

⁸ Neologizmlarni o’rganish yo’nalishi.

zaruriy bosqichi bo'lgan holda uning yakuniy maqsadi bo'la olmaydi. Bunday maqsad sifatida lingvistik nazariya bo'ladi. Shu asnoda til hodisalarini modellashtirish har doim nisbiy bo'ladi. Chunki hech qaysi model mutlaqo to'liq bo'la olmaydi.(Leontyev A.A.), ikkinchidan, esa u sub'ekтивликдан xoli emaski, aslida biror nuqtai nazarini aks ettiradi. Binobarin har bir hodisaning modellari turli bo'lishi mumkin, masalan, ruscha fonemalar tizimini Peterburg va Moskva fonologik mакtablar talqini kabi. Lingvistik modellardan farqli o'laroq model har doim tekshirish, formallashtirish va ishga tadbiq etilish(operasionalizasiya)ga muhtoj bo'ladi.

Lingvistik metodologiyaning uchunchi komponenti bu til qonuniyatlarini bilish metodlarining nazariyasi bo'lib, unda til hodisalarini bilishdagi amaliy usullari haqida ma'lumotlar bo'ladi. Qolaversa, o'rganish predmetining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda o'sha uslublarni qo'llay olish ko'lami haqida ma'lumotlar. Natijada har bir tadqiqotchi o'zining har bir tadqiqotiga tegishli dastur va algoritm bilan ta'minlashi erishiladi. Shunda lingvistik nazariya o'rganilayotgan ob'ektga nisbatan tadqiqot ostidagi yaratilayotgan modellar aniq to'plamini umumlashtirish natijasi bo'lib, ularning o'ziga xos interpretasiya bo'lib chiqadi. Lingvistik nazariya tilshunoslik metodologiya bilan bog'liq holda bo'ladi, lingvistik model esa til voqeligini bilish metodi bilan.

Lingvistik nazariyaning uchchala komponenti metodologik jihatdan yunaltirilgan. Bular quyidagichadir: a) uning konseptual asosi bo'lmish boshlang'ich tushunchalar tizizmi. b) mantiqiy qismi- algoritm bo'lmish isbotlash yo'l-yo'rqlar qoidalari. c) boshlang'ich asoslardan mantiqan kelib chiquvchi qonuniyat va postulatlar ya'ni dalillash va aqliy xulosa qilish tizimi. Shunday qilib, zamonaviy lingvistikaning sistemali metodologiyasining tadqiqot predmetini ob'ektiv ravishda aniqlab, uning aspektlari va usullariga ishora qilib, bilimni sistemalashtirish tamoyil va qoidalarini hamda haqiqiylik mezonlarini shakllantirish ilmiy izlanish sohalarini tashkil etadi. Bundan chiqadiki, zamonaviy lingvistik izlanish samaradorligi uning metodologiyasiga bog'liq bo'lib qoladi, chunki u 1) tadqiqot predmetini belgilab tarkiblashtiradi 2) uning maqsadini aniqlaydi. 3)kerakli metodlar tizimlarini ishlab chiqadi 4) qo'yilgan maqsadlarga qo'lga kiritilgan natijalaringr muvofiqligini baholaydi.

Savollar:

- 1.Kommunikativ-funksional yondoshuvga izoh bering.
2. "Semasiologik mehanizm" nima?
3. Lingvistik metodologiya tarkibi qanday?
4. Umumiy gaplarni bog'liklik atamasiga izoh bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Степанов Ю.С. Язык и метод: К современной философии языка М.,1998
2. Распопов Г.Р. Методология и методика лингвистических исследований(методы синхронного изучения языка), Воронеж,1976
3. Кодиров П. Тил ва эл, Т.,2005

4. Hojiev A. O'bek tilshunosligining dolzarb muammolari-“O'zbek tili va adabiyoti” 2007y. 1-son, 3-son.

Internet saytlari:

- 1.www.voprosyfilologii
- 2.www.filologicheskiye nauki
- 3.www.voprosyyazikoznaniya

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Lingvistik metodologiya tarkibi nimalardan iborat?
- 2.“Matn” tushunchasi izohlab bering.
- 3.Tadqiqot ob'ekti va predmetining muvoanati nimalardan iborat?
- 4.Tilshunmoslikda falsafiy komponentining o'rniga izoh bering.

3-Mavzu: Hozirgi tilshunoslikning metodologik izlanish yo'llari

Darsning o'quv maqsadi: zamonaviy tilshunoslik nazariyalarining metodologik poydevori haqida to'liq tasavvur kasb etish.

Reja:

- 1.Turli metodlar tavsifi.
2. Qiyoziy tarixiy metod. Uning tamoyillari va tushunchalari.
3. Tarixiy-qizoziy metod.
- 4.Qiyoziy-chog'ishtiruv metodi.

Tushuncha va tayanch iboralar:

O'zak tili, tilning ma'noli birliklari, genetic mustaqillik, nisbiy xronologiya, tashqi rekonstruksiya, ichki rekonstruksiya, til qonuniyati, tarixiylik tamoyili, dialektografiya usuli, madaniy tarixiy talqin usuli, matnshunoslik usuli, etimologiya, lingvistik jug'rofiya, mantiqiy tadqiqot, izoglossa, anketalashtirish, filologik tahlil, ethnografiya, arheologiya, interpretatsiya, etalonli model, induktiv tahlil, metatil universaliya.

Lingvistik metod va usullar orasida ham sof lingvistik, ham boshqa ilmu-fan sohalaridan olinganlarni ajratish mumkin. Birinchilar qatorida Qiyoziy tarixiy metod, uning tamoyillari va tushunchalari alohida diqqatga sazovor bo'lib, 19 asrda tillar qardoshligini ixtiro etish natijasida e'lon qilingan metoddir. Bu tushunchani asoslab berish uchun tarixiy yondashuv orqali tillarni chog'ishtirish orqaligina mumkin bo'ldi. Antuan Meyega muvofiq tildagi o'zgarishlarni emas, balki ularning natijalarini kuzatsa bo'ladi.

Demak, qizoziy-tarixiy metod bu qarindosh tillarni o'rganish jarayonida osha tillarning tarixiy o'tmishining manzarasini qayta tiklash maqsadida o'zaktilidan tortib boshlangan taraqqiyot qonuniyatlarni aniqlash uchun qo'llanildigagan ilmiy-tadqiqiy metodlar tizmidir.

O'zak tilining voqeligidagi ko'rinishishi sifatida o'zaro va qo'shni qardosh bo'lmagan tillar bilan hamkorlik va ta'sirda bo'lgan hamda umumiy o'zlashtirishlarga yuz tutgan qabilaviy shevalar majmuasi hisoblanadi.

Uning asosiy tamoyillari quyidagicha:

- 1) Tilning ma'noli birliklarini chog'ishtirish.
- 2) Ular aro genetik mushtaraklikni isbotlash.
- 3) Nisbiy xronologiyalashtirish ya'ni chog'ishtirilayotgan elementlar aro taxminiy tarixiy muvozanatlari aniqlash.
- 4) Tashqi rekonstruksiya (qayta tiklash) ya'ni fonema, morfema yoki shaklning yaxlid ko'rinishini qayta tiklash.
- 5) Ichki rekonstruksiya ya'ni bir tilning faktlarini chog'ishtirib ilgariroq shaklni qayta tiklash.

Bu metod aslida yodgorliklarda qayd etilmagan til tarixini kuzatishga va ma'lum darajada qarindosh tillarning ilgarigi boshlang'ich mushtarakliklagini qayta tiklashga imkoniyat beradi. Natijada, ularning keyingi taraqqiyotidagi ichki qonuniyatlarini aniqlashga sharoit yaratiladi.

Shunga qaramasdan bu metod ba'zi kamchiliklardan xoli emas. Masalan, ba'zi yakka holatdagi *bask* yoki *yapon* tillarni o'rganishda bu metod yaroqsiz. Garchi bu metod orqali eng ko'zga ko'ringan natijalar hind-ovrupo tillarni o'rganishda erishilgan bo'lsa uning imkoniyatlari u yoki bu tillar oilasi ichidagi moddiy qarindoshlik belgilar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Qolaversa, uning imkoniyatlari asosan fonetika va morfologiya bilan cheklanadi.

Bu metoddan qiyosiy-tarixiy tadqiqotni ajrata bilish lozim, chunki tadqiqotda mazkur metoddan tashqari tavsify, sistemali tahlil usullari qo'llanishi mumkin.

Tarixiy-qiyosiy metod yuqoridagi metoddan farqli o'laroq bu yerda bir aniq tilning turli davrlarini o'rganilishi nazarda tutiladi va binobarin bir til ko'lamidagi biron til hodisaning tarixiy taraqqiyotidagi qonuniyatlarini bilib olish uchun qo'llaniladigan tadqiqiy usullarning tizimi tushuniladi. Uning zamirida tarixchilik tamoyili yotgan bo'lib, asosiy usullar sifatida a) ichki rekonstruksiya, b) bosqichma-bosqich ravishda til hodisani xronologiyalashtirish (vaqtini aniqlash), c) dialektografiya usuli, d) madaniy-tarixiy talqin usuli, e) matnshunoslik usuli kabu usullar qo'llaniladi.

a) Buerda o'rganilayotgan birlikning etimologik boshlang'ich ibtidoiy shaklini aniqlash amalga oshiriladi. Masalan, *edi*, *edilar* kabi shakllar qadimda *ermoq* mustaqil fe'lidan kelib chiqqan chizma shaklida bunday hodisa quyidagicha belgilanadi- *edi* <**erdi*.

b) Bu usul dialektologiya, lingvistik jug'rofiya va mintaqaviy tadqiqotlarda qo'llaniladi. Bunda izoglossa, anketalashtirish va filologik tahlil metodikasi qo'llanildi.

c) Bu usul etnografiya va arxeologiya materiallaridan foydalanialdi. Uning tarkibida quyidagi bosqichlar ajratiladi.

- til hodisalarini etnografik guruhlashtirish;
- etnografizm ya'ni ushbu tilning etnografik o'ziga xosligini ko'rsatuvchi so'z va iboralarni ajratib tavsif etish;
- ushbu hodisani moddiy madaniyat buyumlaridagi yozuvlarda aks ettirilgan ko'rinishlariga ta'alauqli arxeologik ma'lumotlar bilan chog'ishtirish;

- chog'ishtirish natijalarini tegishli madaniy- tarixiy kontekstda anglab olish.
- d) Matnshunoslik usuli tahlil etilayotgan matn tarixini o'rganish, asosiy matn va undan ko'chirilgan matnlarni ajratish, bularning xronologiya va mualliflik masalalarini aniqlashga qaratilgan. Shunda filologik tanqid, arxeologiya, germenevtika(matnni tushunish), ekzegetika (matnni tushuntira bilish, izohlash) kabi metodlar qo'llanildi.

Umuman olganda bu metod "til tarixi" deb ataluvchi fanning asosi hisoblanadi.

Qiyosiy chog'ishtirish metodi boshida bu metod qarindosh bo'lmagan tillarning grammatik tizimini tadqiq etish uchun mo'ljallangan edi. Borgan sari bu yerda tipologiya rivojlanishi bilan ham qarindosh, ham turli xildagi tizimli tillarni ularda o'xshash va farqli xossa va belgilarini ajratib aniqlash uchun tadbiq etiladigan bo'ldi. Natijada tillar ittifoqlari kabi tushunchalar yuzaga chiqdi. Ushbu metodning asosiy usullaridan 1) chog'ishtirish tayanchini aniqlash, 2) chog'ishtirish (interpretatsiya) va 3) tipologik tavsif (harakteristika) kabi usullar o'zin topgan.

1) Buni chog'ishtirish predmetini aniqlash deb tushuniladi. Shu vazifaning yechimini 2 yo'l bilan bajariladi: 1) tillarni chog'ishtish orqali; 2) belgilar bo'yicha chog'ishtirish orqali. Ammo eng yaroqli yo'l bu kompleks yondashuv. Parallel ravishdagi chog'ishtirish tadqiqoti natijasida o'xshash va farqli xossa va belgilarini yuzaga chiqarib beradi.

Tipologik tadqiqot ikki model- anketali va etallonli modellar asosida bajariladi. Birinchisida ushbu tilga xos belgilar ro'yxati asos bo'lsa, bular induktiv tahlil asosida o'rganiladi. Ikkinchisida etalon (namuna) sifatida ushbu til xodisasi mayjud til tanlab olinadi. Jumladan, xorijiy til tizimini tavsiflash uchun etalon bo'lib ona til tizimini tavsiflash uchun etalon bo'lib ona tili olinadi. Qolaversa, bunday etalon sifatida maxsus yaratilgan metatil olinishi mumkin. Metatil deb tipologik tavsif yaratilishi maqsadida tuzilgan qoidalar tizimi nazarda tutiladi.

Natijada lingvistik universaliya- ya'ni tillararo mushtarakliklar aniqlanadi. Bular absolyut (to'liq)- ya'ni tilni umuman xarakterlovchi, hamda statistic (to'liq bo'lmagan) tillarning katta guruhlari, tiplari, tillar ittifoqlariga xos belgilardir. Statistiklari o'z navbatida sodda va murakkablargacha bo'linadi. Soddalari tilda ushbu hodisaning mayjudligi yoki yo'qligini ko'rsatsa, murakkablari tillaro shu munosabatdagi bog'liklikka ishora qiladi. Soddalar misoli- tilda agar so'z o'zlashtirish tizimi bo'lsa, so'z yasalishi tizimi ham bor deb ta'kidlaydi. Murakkablari esa ushbu tildagi fonemalarning oz miqdori bilan har bir fonemaning morfema tarkibida kelish chastotasi orasida bog'liklikni ko'rsatadi.

Tipologik tadqiqotlar natijasida jahon tillarining tipologik tasniflari tuzilib, eng ko'p tan olingani *Gumboldt-Shleicher* kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Uning zamirida so'zning leksik va Grammatik ma'nolarining muvozanati yotadi. Bunga ko'ra barcha tillar 4 xil turga bo'linadi: flektiv, aglyutinativ, izolyativ va inkorporativ. Flektiv tillarda ikkala ma'no bitta yaxlid

soz shakli bilan ifodalanadi. (masalan, hindiycha-*karnaa-kiya*, *ki*, *kiye*, *kiinn* kabi shakkarda). Ikkala ma'nolarning alohida ifodalanishi agglyutinativ tillarga xos. Izolaytiv tillarda esa grammatik ma'no anglatuvchi elementlar mavjud emas. Zero, bularda grammatik ma'nolar so'zlar tarkibi va ohang orqali bildiriladi.

Inkorporativ tillarda grammatik ma'nolar fe'l-kesim tarkibida boshqa gap bo'laklariini qistirish (inkorporatsiya) orqali bildiriladi. Natijada fe'l-kesim bir necha gap bo'laklari bilan moslashishi mumkin. Bunday tillarni yana polisintetik deb ataladi.

Savollar:

1. O'zak tili tushunchasiga izoh bering?
2. Nisbiy xronologiya nima?
3. Til qonuniyatiga misol keltiring.
4. Etimologiya nima?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

- 1.Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш, ДДА-Т.,1997
- 2.Қодиров П. Тил ва эл Т.,2005
- 3.Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik,T.,2007
- 4.Safarov Sh, Toirova G., Nutqning etnosocioprogmatik tahlili asoslari, Samarqand, 2007
- 5.Sobirov A.Sh. O'zbek tili leksik sathini sistema sathida tadqiq etish. DDA.-T.,2005
6. Hojiev A. O'zbek tilshunoslogining dolzarb muammolari-“O'zbek tili va adabiyoti”, 2006, 3-son; 2006,5-son; 2007,1-son,3-son.
7. Мейе А. Введение в сравнительное изучение индоевропейских языков,М.,1938.
8. Гак В.Г. Сопоставительная грамматика//Филологические науки. 1992 №3

Internet saytlari:

- 1.www.voprosyyazykoznaniya.ru
- 2.www.filologicheskiyenayki.ru
- 3.www.voprosyfilologii.ru
- 4.www.http://indianlingvistics

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Qiyosiy-tarixiy metodning kelib chiqishiga nima sababchi bo'lgan.
2. Tarixiy-qiyosiy metodning qiyosiy-tarixiy metoddan farqli tomonlarini yoritib bering.
3. Tipologiya va tipologik yondashuv nimadan iborat?
4. O'z ilmiy tadqiqtingiz misolida ushbu metodning qo'llanilishini kuzatib chiqing.
- 5.Qiyosiy-chog'ishtiruv metodi asoslariga izoh bering.

4-Mavzu : Umumiy metodlar

Darsning o'quv maqsadi: tilshunoslikda umumiy qamrovga ega metodlarga oid to'liq tushuncha kasb etish.

Reja:

- 1.Distributiv tahlil metodi.
- 2.Transformatsiya tahlil metodi.
- 3.Bevosita tarkiblovchilar metodi.

Tushuncha va tayanch iboralar:

Distributsiya, kontrast, qo'shimcha erkin almashinish, transformatsiya, darak gap, so'z birikma, formal-grammatik, tobelik, ikkilamchi bo'lak, sintagma, sintaktik tuzilma, ikkitomonli.

Bular orasida bir necha xususiy metodlar mavjud bo'lib, barchasiga xos tomoni til xodisalar tashqi shakli strukturasini aniqlashga qaratilganligi.

Distributiv tahlil metodi bunda til elementlarining yonma-yon kelib distributsiyasi (qurshov) e'tiborga olinib, ushbu elementlarning mustaqil bo'lmasisligi tobe' yoki tobe' emasligi aniqlanada. Faqat ifoda plani asosida. Buning asosiy maqsadi til birliklarini sintagmatik xossalariiga ko'ra tasniflash. Distributsiya orqali aniqlangan o'xshash yoki o'xshamaslik til birliklarini tasniflash uchun asos bo'ladi.

Bu jarayon nutq bo'lagini tarkibiy bo'linishidan boshlanadi- Bo'lak(yoki segment)larga. Har bir ikki segmentni solishtirganda uch xil distributiv munosabat aniqlanadi.

1. Kontrast distributsiya – til elementlarning bir xil pozitsiyada, biri o'rnida ikkinchisining kela olishi va bunda boshqa-boshqa ma'noli birliklarni farqlab turishi. Masalan, *bosh – bo'sh* kabilarda umilar kontrast distributsiya holatidadir.
2. Qo'shimcha distributsiya – til elementlarning bir xil pozitsiyada biri o'rnida ikkinchisining kela olmasligi. Masalan, “*k*” tovushidan keyin “*k*” kela oladi, lekin “*q*” kela olmaydi: *makka* kabi.
3. Erkin almashinish distributsiyasi – til elementlarning har xil pozitsiyada biri o'rnida ikkinchisining kela olishi. Masalan, *chelak – chelay* kabi.

Shunda kontrastiv distributsiya tilning turli xildagi mustaqil birliklarga taalluqli bo'lsa, qolgan ikkitasi bitta birlikning variantlariga taalluqlidir. Asosan bu metod tovush tizimiga to'g'ri keladi.

Sintaktik sathda bu metod sintaktik tuzilmadagi turli komponentlarning birikuv imkoniyatlari o'rganishga qaratilgan.

Transformatsion tahlil metodi bu metod turli – tuman sintaktik tuzilmalarni qayta tuzib, sodda (oddiy, yadroviy) tuzilmalarga keltirish qoidalari va usuli. Bu yerda asosiy va sintaktik tuzilmani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi tuzilma hosis qilish. Masalan, aniq tuzilmaning majhul tuzilmaga aylantirilishi: *qizcha she'rni o'qidi – she'r qizcha tomonidan o'qildi*. Buni transformatsiya deyiladi.

Bunday metod yuqorida tilga olingan qiyosiy-tarixiy va tarixiy-qiyosiy metodlardan farqli o'larоq Rossiyalik hindshunos olimlaridan V.A. Zaxarin (Строй типология языка кашмири ,М.,1981; "Типология языков Южной Азии", М.,1987 и В.П.Липеровский "Синтаксис современного хинди", М.,1987; Контур грамматического строя языка хинди-восточное языкознание М.,2003.)larning mazkur asarlarida keng о'rin topib kelgan uslub hisoblanadi. Bularning ijobjiy tomoni til hodislarini aniq yoritishga о'zining katta hissasini qo'shib til tizimining strukturasi lo'nda va tiniq anglashga yordam beradi.

Eng ko'p uchraydigan transformatsiyalardan quydagi larni qayd qilsa bo'ladi:

- 1) Aniq tuzilmani majhul tuzilmaga aylantirish
- 2) Tasdiqlovchi tuzilmani inkor etuvchi tuzilmaga
- 3) Darak gapni so'roq gapga va aksincha
- 4) Gapni so'z birikmasiga va aksincha
- 5) Bir so'z birikmasini boshqa so'z birikmasiga

Bularni amalgalashishda ong muhim shart shuki – boshlang'ich tuzilma va uning hosilalari birhil vaziyatga to'g'ri kelishi kerak.

Bunday tahlil quidagi formal Grammatik va mazmuniy vazifalarni echishga imkon beradi.

- 1)Sintaktik tuzilmalar aro farqlar va o'xshashlikni aniqlash.
- 2)Omonim tuzilmalarni ajratib berish.
- 3)Distributiv va bevostia tarkiblovchilar metodlari orqali hosil qilinadigan tasnifni takomillashtirib yaxshilash
- 4)O'zgartirilayotgan bir xil tarkibili tuzilmalarning semantik xossalari aniqlashtirishga yordam beradi. Ba'zi kamchiliklariga qaramasadan bu metod ko'p struktur-semantik tafsif vazifalarini echimida yordam beradi.


Bevosita tarkiblovchilar metodi bu metodning zamirida gapdagи barcha bo'laklararo tobeklikning bir xil tipdagi munosabatlari yotadi. Bularga ko'ra 1) gapning ikkilamchi bo'laklari o'zaro yoki bosh bo'laklardan bittasiga tobe bo'ladi. B)gapning egasi kesimiga tobe bo'ladi. Masalan, *Bu yili qish juda soyug tushadi*- ikki chiziq bilan belgilangan so'z boshqaruvchi bo'lib bir chiziqlisi esa tobe so'z bo'ladi. Bordi-yu birinchisi tushirilsa, gapning butun mazmuni yo'qoladi, vaholanki ikkinchisining tuzilishi bunday holatga olib kelmaydi. Bu sintagma (tizma)da tobe va boshqaruvchi so'zlar sintagmaning bevosita tarkiblovchilar hisoblanadi.

Demak, bunday tahlil bir necha tadqiqiy qadamlardan tashkil topadi. Masalan, bularning asosiysi har bir juftlikni birlashtirib bir harf ostida belgilash bo'lib, bunday jarayon ikki yo'l orqali ko'rsatiladi: 1) qavs orqali masalan

| | | | | | |
|---|----------------|-----|---|---|---|
| A ₁ | N ₁ | Adv | A | N | V |
| { (mashhur qo'shiqchi) [(juda murakkab) qo'shiqni] aytdi} | | | | | |

3) masalan, yoki shajara chizmasi orqali:

Mashhur qo'shiqdagi juda murakkab qo'shiqni aytdi.



Bu metod sintaksik tuzilmalarning ham analizi, ham sintezi uchun ya'ni transformatsiya modellarini yaratish uchun qo'llaniladi. Bunday transformatsiya metodi bevosita tarkiblovchilar modeliga teskari keladi. Transformatsiya metodini yana yoyish (развертывание) deb ataladi. Buning uchun modelning leksik to'ldirilishini (наполнение)ni bilish kerak.

Misol uchun yuqorida berilgan shajarani yoyish yo'li bilan transformatsiya amalga oshiriladi.

Savollar:

1. "Qo'shimcha distributiv almashinish" deb nima nazarda tutiladi?
2. "Transformatsiya" tushunchasi niamni bildiradi?
3. Sintagma turlariga izoh bering.
4. Ikki tomonli birliklarga nimalar kiradi?

Tavsiya etiladigan qi'shimcha adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Til qurilishi:tahlil metodlari va metodologiyasi, T.2007
2. Hojiev A. tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T. 2002
3. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. М., 1966.
4. Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику, М.,1974.

Internet saytlari:

- 1.www.google.com
- 2.www.indianlingvistics.com
- 3.www.voprosyyazikoznaniya.ru
- 4.www.filologicheskiye nauki.ru
- 5.www.voprosyfilologii.ru

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Hozirgi tilshunoslikda structural metodlar o'rnini tushuntirib bering.

- Distributiv tahlil metodi qanday tadqiqiy muammolarning echimiga qaratilgan.
- Transformatsion metodi nimadan iborat?
- Bevosita tarkiblovchilar metodining negizida nima yotadi?

5-Mavzu : Maxsus structural metodlar

Darsning o'quv maqsadi: structural tilshunoslik ko'lqidagi metodlar haqida tasavvur kasb etish.

Reja:

- Komponent tahlil metodi.
- Lingvostatistik metod va uning ahamiyati hamda cheklanishlar.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

Sema, semema, ma'naviy element, denotat, mantiqiy, lingvistik, semantic, belgi, eksplisit, implicit, paradigmatic, sintagmatik, diskret, ehtimolli, fonema, morfema, til birliklari, tanlovchanlik, korreleatsiya, lingvostatistika, chiziqli, leksik-semantik variant, chastota, koeffitsient.

Komponent tahlil metodi bu metod strukturaviy semasiologiya sohasiga xizmat qiladi. Buning maqsadi ikkitomonli til birliklarini aniqlashdirki-birinchidan, ularning mazmunidagi eng kichik birliklarini ajratish, ikkinchidan, ulararo qonuniy aloqa va munosabatlarni topish.

Bu semantic eng kichik birlik chex olimi V.Skalichkaga asosan "sema" deb nom berilgan.

Sema bu sememaning tarkibiy qismi bo'lgan holda ma'nuning eng kichik ma'noviy elementidir. Demak, semema bu struktur ravishda tartibga solingan semalar (yig'indisi "пучок") bo'lib semalararo aniq mazmuniy munosabatlarni bildiradi. Har bir sema esa til sohiblari ongidagi denotatga ob'ektiv ravishda xos farqlovchi belgilarning in'ikosi bo'ladi.

Asosan turli xildagi yondashuvlarni hisobga olganda turli ma'nolar tarkibidagi semalarni ajratishning quyidagi usullar mavjud:

- mantiqiy-denotatning sema va belgilalararo gnoseologik aloqalarni topish.
- Lingvistik-nutqda semantic jihatdan o'zaro yaqin so'zlar birikuvligini hisobga oladi.
- Mantiqiy-lingvistik-mazkur ikkilov usullarini uyg'unlashtiradi.

Komponent tahlili "sema" va "semantic belgi" kabi tushunchalarni ajrata bilishni talab qiladi. (qiyoslash "fonema" va "fonologik belgi"). Ya'ni sema bu semantic birlik bo'lsa, "semantic belgi" bu so'z yoki so'z birikmaning ma'nosining aniq parametri.

Semalarning ham turli xildagi turlari ajratiladi-

- 1) leksik va grammatic 2) eksplisit implisit bu erda eksplisit ifoda plani jihatidan morfema nazarda tutiladi, implicit deb esa o'z moddiy ifodasiga ega bo'limgan semalar kiradi. 3) paradigmatic va sintagmatik 4) bosh (доминирующие) va tobe (зависимые) 5)yadroga tegishli (ядерные) va chekadagi (периферийные)

6) integratsiyaga olib bboruvchi (identifikatsiyali) va farqlovchi 7) majburiy va fakultativ. Semalarni ikki yo'l-paradigmatik va sintagmatik yo'l orqali qilsa bo'ladi.

Masalan,

| № | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|--------------------|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1.Donishmand | + | + | | + | + | | | |
| 2.Bilimdon(erudit) | + | + | | + | | + | | |
| 3.Talantli | + | + | | + | | | + | |
| 4.Salohiyatli | + | + | | + | | | | + |
| 5.Farosatli | + | | + | + | | | | |

1)fikrlab oluvchi. 2-boy idrok sohibi. 3-idrokli. 4-tez fahmlovchi. 5-juda tajribali. 6-ko'p o'qigan. 7-tajriba va o'qimishlikdan qat'iy nazar. 8-normal ravishda tushuna oladigan.

Komponent tahlil jarayoni lug'aviy izoh yo'li ko'p qo'llaniladigan bolib qolgan, chunki bunday izoh so'zning ma'nosini tarkibiy qismlarga bo'linishini mo'ljallaydi. Bu paradigmatic yo'l. Sintagmatik yo'l matnda semantic jihatdan yaqin so'z yonma-yon kelishini hisobga o'tkaziladi.

Lingvostatistik metod bu metodning dolzarbligi quyidagilardan kelib chiqadi:

- Til tizimi diskret (bo'linadigan) birliklar majmuasi bo'lgan holda miqdoriy xarakterga ega.
- Yuqoridaqgi xarakter bir sathdagi birliklarning boshqa sathdagi birliklardan farqlovchi sifatli o'ziga xoslikni ta'minlaydi.
- Ehtimolli (вероятностный) tabiatiga ega. Bunga binoan so'zlarni yaratish uchun kerak bo'ladigan fonema va morfemalar qo'shilmalarining cheklangan qismi qo'llaniladi. Bu metodni tadbiq etish quyidagi tamoyillarga tayanadi. A) til birliklarining ko'pligi. B) ularning nutqda takrorlanishi C) til birliklarning tanlovga moyilligi tanlovchanlik.

Aslida bu metod mutloqo absolyutligi bo'lmasdan boshqa metodlarga bo'ysunadigan til qonuniytalrini o'rganishdagi yana bir yo'l hisoblanishi zarur. Boz ustiga o'rganilayotgan til hodisasing miqdoriy va sifatiy metodlar bir birini to'dirib borishi zarur. Bu metod eng mahsuldar ravishda chastotali lug'atlar tuzilishida o'zini oqlab kelmoqda.

Lingvostatistikning asosiy tushunchalariga kelsak, bu erda korrelyatsiya (корреляция) degan asosiy tushuncha bo'lib, uning xususiyati shundan iboratki til hodisaning miqdoriy va sifatiy tavsiflari orasidagi qat'iy bo'limgan muvozanatlarni belgilash. Tilshunoslikda asosan chiziqli (линейная)

korrelyatsiya qo'llaniali. Bunga ko'ra bitta belgining ko'payishiga boshqa belgi ma'nolarining ko'payishi yoki kamayishi qo'shiladi. Masalan, bunday muvozanatda so'zning leksik-semantik variantlari bilan so'zlarning nutq yoki matndagi ishlatalish chastotasi turishi mumkin. Shunda ijobi va musbat korrelyatsiya ijobi va musbat korrelyatsiya vaziyatlari bo'lisi mumkin. Shunda korrelyatsiya zichligining darajasini ko'rsatuvchi raqam korrelyatsiya koefficienti deb (-1 va 1 orasida) ataladi. Boshqacha aytganda bu muvozanat-1-o+1 shaklida ko'rsatilishi mumkin.

Bu raqamni quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$r = \frac{\sum (X_1 - \bar{X})(Y_1 - \bar{Y})}{\sqrt{\sum (X_1 - \bar{X})^2} \sqrt{\sum (Y_1 - \bar{Y})^2}}$$

Bu erda $r = \text{chiziqli } 1$ Σ -u yoki bu harakat (operatsiya)ning natijasida hosil bo'ladigan yakun; x_1 -birinchi belgining o'rta hisobdagi ma'nosи; \bar{x} -birinchi belgining o'rta hisobdagi miqdori; y -ikkinchisi belgining ma'nosи y -ikkinchisi belgining o'rtacha miqdori. $x_1 - \bar{x}$ va $y_1 - \bar{y}$ holatlari hosil bo'lgan miqdorlarning o'rtachalaridan bo'lgan siljishlarini ko'rsatadi. Buni quyidagi konkret misolda ko'rsak- faraz etaylikki, aniq bir hodisaning ikki mualliflar (A_1 va A_2) matnlaridagi ifodalar (репрезентация) dan 10 tasini tanlab olib quyidagi chastotalarni aniqladik:

| Kuzatilayotgan hodisa | Birinchi tanlov | Ikkinci tanlov | Ja'mi |
|-----------------------|-----------------|----------------|-------|
| 1 | 5 | 10 | 15 |
| 2 | 10 | 15 | 25 |
| 3 | 15 | 20 | 35 |
| 4 | 20 | 25 | 45 |
| 5 | 25 | 30 | 55 |
| 6 | 30 | 35 | 65 |
| 7 | 35 | 40 | 75 |
| 8 | 40 | 45 | 85 |
| 9 | 45 | 50 | 95 |
| 10 | 50 | 55 | 105 |
| Ja'mi | 275 | 325 | 600 |

Qolgan harakat ushbu formula bo'yicha amalga oshiriladi. Natijada $r = +0.625: 4253906.2 = +0.0004848$ bo'lib, kuzatilayotgan tanlovlararo korrelyatsiya ijobi bo'lsa-da juda ojizdir.

Savollar:

1. "Komponent tahlil" deganda nima tushunliadi?

2. "Sema" va "Semema" atamalariga izoh bering.

3. "Diskret" tushunchasi nimani bildiradi?

4. "Leksik semantik variant" nimadan iborat?

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Til qurilishi:tahlil metodlari va metodologiyasi, T.2007
2. Головин Б.Н. Язык и статистика, М.,1971
3. Фрумкина Р.М.Статистические методы изучения лексики, М., 1964
4. Петровский К.Г.и др. Математическая лингвистика, М.,1977.
5. Хант Д. Вычислительная лингвистика в Летном институте лингвистики/Вопросы языкоznания/, 1993, №6.

Internet saytlari:

- 1.www.google.com
- 2.www.indianlingvistics.com
- 3.www.voprosyayazkoznaniya.ru
- 4.www.filologicheskiye nauki.ru
- 5.www.voprosyfilologii.ru

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Lingvostatistik metodining tarixini qisqacha so'zlab bering.
2. Chastota hodisasi qanday hisoblab chiqilishini izohlab bering.
3. O'z ilmiy tadqiqotningizda lingvostatistik metodning qo'llanilishi namoyish etishga harakat qiling.
4. Komponent tahlil metodi qanday hodisalarни tadqiq etish uchun mo'ljallangan?

6-Mavzu : Ma'naviy nazariyaga yo'naltirilgan yangi metodlar

Darsning o'quv maqsadi: ushbu eng yangi lingvistik metodlarga oid to'liq va qisqa tasavvur kasb etish.

Reja:

- 1.Psiholingvistika
- 2.Kognitiv lingvistika

Tushuncha va tayanch iboralar:

Lingvistik kompetensiya, til faolligi, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, matnni indekslash., parametrik, alomatli, prototipli yondashuvlar, bilish, bilim, informatsiya, concept,kategoriya, freym, mentalitet.

Psiholingvistika -bu nazariya boshlanishi 1953 y. fanlararo aloqalar bo'yicha Xalqaro seminar (AQSh,Blumington)da taniqli ameriaklik truhshunos Ch.Osgud va antropolog hamda etnograf T.Sibeok boshchiligidida e'lon qilingan edi.

Bu yo'nalish nutq faoliyati tushunchasiining doirasidagi asosiy komponentlarni o'rganishga qaratilgan. Bular qatorida "so'zlash" va "nutq"ni tushunish ya'ni qabul qilish jarayonlarini anglash kabi masalalar turadi.

Bu fan asoslari L.V.Sherbaning “О тройком аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкоznании” nomli asarida bayon etilgan. Natijada bu fanning nomi “*nutqiy faoliyat nazariyasi*” deb ataladi.

G’arba keng tarqalgan *Miller-Homskiy* konsepsiyasiga ko’ra transformatsiyalar nazariyasiga til negizida qoidalar cheklangan tziimi etib, buning ko’lamida to’g’ri tuzilgan gaplarning poyonsiz miqdori berilgan bo’ladi. Bularni so’zlovchi to’g’ri tuzib borsa tinglovchi tushunishga urinadi. Bunday jarayonlarni anglash uchun *Homskiy* “*Lingvistik kompetensiya*” bu birlamchuya’ni tilni bila olish va “til faoliagi” ushbu qobiliyatni amalgam oshirish jarayoni va ikkilamchi kabi tushunchalarni kiritadi.

Mazkur “so’zlash” va “tinglash” jarayonlarda olim yuzaki (поверхностная) va chuqur (глубинная) strukturalar ajratiladi. *Miller* bunday hodisalarni tafakkurning o’ziga xos inikosi deb tushunadi.

Rus olimlari o’z navbatida tafakkurni keng ma’noda tushungan holda bu faol bilishga qaratilgan faoliyat, shuningdek tashqi faoliyatni rejalashtirish va tartibga solishga yo’nalgan ichki jarayon deb talqin qilinadi. Boshqacha aytganda uni a) tashqi(predmetli) dunyoni ichki obrazlar orqali aks ettirish jarayoni b) mavjud bo’lmagan buyumlargaga nisbatan qilinayotgan faoliyat sifatida tan olinadi. Bunday harakatda odam va mavjud bo’lmagan buyum hamda uning to’liq o’rinbosari bo’lmish obraz o’tasida maxsus vositachi (посредник) kerak bo’lib, uning sifatida belgi yoki belgilar qo’llaniladi. Bunday belgilar nolisoniy va lisoniy larga bo’linadi. Bu belgilar turli tillarda turlicha ifodalanadi.

Psiholoyigada tashqi amaliy ishharakatlarni ichkilarga aylantirish interiorizatsiya, vaholanki(ichki) xayoliy ish-harakatlarni tashqi(amaliy)larga aylantirishni-eksteriorizatsiya deyiladi.

Interiorizatsiya muammosi aslida esa psiholingvistika bilan kognitiv lingvistika tutashuvidagi hodisadir.

Uning g’oyalari “belgi”, “ma’no” va ularning ongga nisbatan voqealashishiga (предикация) kabi tushunchalarga tayanadi. L.S. Vygotskiyga binoan ongning sistemaligi belgilar tizimiga bog’liq bo’ladi. Ammo belgilar tug’ma bo’lmasdan o’zlashtirilgan bo’ladi. Ma’no o’z navbatida nafaqat muloqot, aloqa va tafakkur hosisasi, balki bunda ichki va tashqi ya’ni ijtimoiy bilan psihik hodisalar kesishadi. Boshqacha aytganda, bu nafaqat faoliyat samarasi, balki faoliyatning o’zidir. Bundan til dinamikasini tushunsa bo’ladiki, so’zning qo’rshov (контекст) ichida va tashqarisidagi hayoti, uning tovlanishi, leksik-semantik variant rang-barangligining o’zgarishi, yangi ma’nolarning paydo bo’lishi kelib chiqadi. Gap (высказывание) da nutqiy faoliyatning asosiy xususiyatlari o’z aksini topadiganligi tufayli bu nazariya zamirida gapning yaratilishi yotadi.

20 asr oxirgi choragida bu yonalishdan “matn lingvistika”si sari burilish kuzatiladi. Psiholingvistikada qo’llaniladigan asosiy metod-lingvistik tajriba (eksperimental) dan tashkil topib, quyidagi usullarga tayanadi: a)assosiativ

tajriba b) eksperimental o’lhash c) taxminiy prognozlash d) matnni indekslash (ya’ni ko’rsatgichlar bilan ta’minalash).

Ch.Osgud tomonidan ishlab chiqilgan “*omil (стимул) reaksiya (реакция)*” modeli asosida assosiasiya (*so’z omil-* слово стимул) metodikasi shakllangan.

Psiholingvistik jihatdan so’z va uning ma’nolarini o’rganish quyidagi yondashuvlar orqali amalga oshiriladi: a)parametric b)alomatli (признаковый) c)prototipli (прототипный) d)situativ.

Kognitiv lingvistika bu tubdan yangi yo’nalish bilim va bilishning tabiatini va mohiyati, vogelikni inson orqali qabul qilish va uning bilish faoliyatining anglanib tizimlashtirilgan informasiya sifatida to’plangan natijalarini o’z ob’ekti sifatida o’rganadi.

Bilish deganda informasiyani qabul qilish(восприятие) tushunish(понимание), tasavvur (репрезентация) va qayta yaratish(порождение) tizimlarning o’zaro ta’siri (взаимодействие). Informasiya bu aloqa (kommunikasiya) jarayonida til tizimlari orqali taqdim etiladigan va uzatiladigan bilimlardir.

Bilish deb ob’ektlarni induksiya bilan deduksiya, aqliy hulosha (умозаключение), fikr yuritish (рассуждение) assotsiatsiya(o’xshatish) hamda solishtirish, tanib olish (идентификация), bilib anglab olish (распознавание), kategoriyalashtirish va tasniflash kabi fikrflash jarayonlar mobaynida hosil qilingan ma’lumotlar. Bular freimlar(фреймы), skriptlar(скрипты), scenariylar, propozisiyalar, obrazlar va h.z. kognitiv tuzilmalar orqali taqdim etilgan(репрезентированные) bo’ladi.

Madaniyat tili hamda bilim shakllari tarixan o’zgaruvchi sinergetik(синергетическое) birlik tashkil etishi tufayli bilim, birinchidan, madaniy ongning eski yoki hozirgi sistemasiga turli tarzda kirib keladi va ikkinchidan, ijtimoiy hayot tarkibida turli vazifalarini bajaradi. Bunday tadqiqotlarda bilim amaliy, metodologik yoki falsafiy-nazariy bilimlardan farq qilib pragmatic turdag'i tilda ifodalangan bilim shaklida gavdalanadi. Masalan, “*kapalagi uchib ketdi*” deganda “*juda ham qo’rqib ketdi*” kabi iboralarda o’z ifodasini topadi.

Yuqorida ko’rsatilgan bilim tiplariga ko’ra ularni o’rganish yo’lida maxsus yondashuvlar ishlab chiqilgan: 1) strukturaviy 2)formal-mantiqiy 3)pragmatik bilimlar turli modellarni birlashtirish ularni tushunish uchun umumiyo asos zarur.

Kognitiv tuzilmalar xususida fikr yuritganda bular vogelikni anglab olish modellari bo’lib bular vogelikni anglab olish modellari bo’lib masofa, vaqt, harakat (движение), sabab-oqibat munosabatlarini qabul qilib tushunish xususiyatlarini aks ettiruvchi bilimni tartiblash(упорядочивание)dagи kategorial-semantik strukturalardir.


Madaniy bilim uch xil o’zaro bog’langan faoliyat orqali shakllanadi-1)tashqi amaliy 2) bilish jarayonlari va 3)aloqa (коммуникация).

Shunda informasiyaning ikki turli ko'rinishini ajrata bilish zarur a) addativ (manbadan hosil qilinishi mumkin bo'lgan informasiyaning butun majmuasi) b)selektiv (hosil qilish va uzatish uchun tanlanadigan informatsiya) Matnlardan tanlab olingan turg'un tuzilmalar diskursiv (hayotga cho'mgan matn) faoliyat samarasi bo'l mish matnlarda shakllangan va qadriyatlarga qaratilgan. Ma'nolarni eng qisqa shaklda ifodalay oladi. Masalan, Qur'onda qayd etilgan metafora va iboralar.

Demak, madaniyat qurshovida o'zini ta'minlay oladigan(самодостаточная) semantic mavjudlik (реальность) bo'lgan holda an'anaviy dunyoqarashning qadriyatlarga yo'naltirilgan modellar tomonidan tartiblanadi.

Kognitiv lingvistika diqqat markazida lisoniy bilimlar yotadi vaholanki nolisoniy bilimlar ham bo'ladi.

Bilimni konsepsiyalash va kategoriyalashning lingvistik muammolari. Kognitiv so'zi -ingliz tilida Cognitive "bilishga tegishli" degan ma'noni bildiradi. Kognitiv fanlarning o'rtasida lingvistika o'mni (Kubryakova)



Demak, kognitiv lingvistika – birnecha fan bo'l mish so'nggi intellect nazariyasi(kompyuter orqali) tilshunoslik, psihologiya, psiholingvistika va nevrologiya fanlarining yondashuv va g'oyalarini birlashtiruvchi kompleks ilmiy fandir.

V.Z.Demyankovga asosan kognitiv lingvistikaning asosiy vazifasi “*inson tomonidan tilni o'zlashtirish mechanizmlarini hamda ushbu mechanizmlarini strukturalash tamoyillarini tizimli ravishda tavsiflash va tushuntirish*”dir. (Вопросы языкоznания, 1994 №4 стр17, «Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего метода»)

Tilni yuzadagi strukturalar manbai deb tushunilsa va bular chuqr strukturalar vakillari bo'lsa, o'sha chuqr tuzilmalarni bizga etib kelayotgan til strukturali asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Har bir insonning xotirasi aslida bir ulkan tutashayotgan shajaralar majmuasidan iborat. Bu majmuadagi har bir tugun aniq bir concept (ya'ni tezkor kognirtiv tuzilma)ni tashkil etadi. Ushbu konceptning lisoniy ifodasini esa keng ma'nodagi lisoniy belgi, ya'ni so'z ibora yoki gap bo'ladi.

Konsept alohida birlik sifatida umumiy tizim birligi bo'lib shakllanib, uning zamiridia maxsus(individual moddiy-buyumli) obraz yotadi. Konkret shaklda, masalan, kitob konsepti bir shaxs uchun “alifbe” bo'lib tuyulsa, boshqasi uchun Qur'on, uchunchisi uchun A.Navoi kitobi.

Borgan sari bilish jarayoni rivojlanishi bilan konsept yadrosi yangilanishi mumkin. Shaxsning ijtimoiy-madaniy tajribasining taraqqiyotiga muvofiq. Garchi uning strukturasi tiniq bo'lmasa-da undagi predmetli-obrazli yadrosi o'ta konkret bo'lib, chekadagi (периферийный) qatlamlari mavhum bo'lib yana boshqa qatlamlar paydo bo'lishiga asos bo'la oladi.

Agar fikrning strukturaviy birligi bo'l mish tushunchani molekula bilan solishtirsak, unda obraz undagi atom bo'la oladi.

Shunda konsept atamasini tushuncha atamasidan farqlash lozim, chunki birinchisi ikkita kognitiv mavjudlikni bildiradi. 1) Konsept- 1 bu boshlang'ich tasavvur bo'lgan holda so'zni vujudga keltiradi. 2) Konsept -2 bu birlik lisoniy ijodiy tafakkur natijasida paydo bo'layotgan va etik-lisoniy ongda o'sha tafakkurning tayanch elementlaridan biri bo'ladi.

Bu jarayonda lingvomadaniy to'rga lisoniy ma'noning etimologik va diahronik elementlari uning ichki strukturasi va hozirgi ma'noviy mazmuni, qo'rshov(kontekst) semantikasi, belgi diskursiv (matnli) ma'nosи, uning ichki mazmunining sintagmatika va paradigmatisasi kirishi nazarda tutiladi.

Konseptlar turlari va ularning lisoniy ifodalanishi bular o'rtasida asosiy turlaridan freym va stsenariylari eng muhim. Freym bu statik (ya'ni o'zgarmaydigan) fikriy obraz bo'lsa, scenariy bu dinamik o'zgarib rivojlanuvchisidir.

Freymlarning ichki strukturasi egiluvchan, ya'ni ichki alomat(признак)larining muvozanati o'zgarishi mumkin. Masalan, “jar solmoq” iborasi o'zining majburiy alomatlari bo'l mish “hammagaga eshitirib, hamma erda, hammaga aytmoq, hikoya qilmoq, g'iybat qilmoq biron narsa to'g'risidia(ko'pincha tuhmatli, bo'l magan, mish-mishli narsalarni)”. Buning majburiy alomatlari- “ochiqchasiga va barchaga oshkora qilmoq” bo'lsa,

chekadagi alomatlari “hamma erda, allanimalarni bag’illab gapirmoq, g’iybat qilmoq, mish-mish tarqatmoq” bo’ladi.

Freymlarning egiluvchanligi uchun bu ibora turli situatsiyalarni bildirishi mumkin, masalan, a) *biron narsani xabar qilmoq*; b) *shaxsiy narsani hammaga etkazmoq*; c) *valdiramoq biron narsa haqida*; d) *g’iybat qilmoq* va h.z.

Freymlarning tuzilmasidan farqli o’laroq scenariy yoki script vaqt va masofada yuz beruvchi stereotip (har vaziyatga to’g’ri keladigan) voqeani bildiradi. Ya’ni freym voqeaneing umumiyligi chizmasini ko’rsatsa, scenariy uni jonlantirib beradi. Chekadagi ma’naviy elementlari va tafsilotlari yordamida.

Qiyoslang:

Freym: tili uzun

Scenariy: tili bir qarich bo’lib ketdi.

Yana bir turi – geshtalt(рештальт) ifodalananayotgan vaziyatning moddiy va aqliy elementlarning rang-barangligini o’z ichiga oladigan yaxlid obraxli tuzilma, geshtaltning o’ziga xosligi uning baravariga ham yaxlid ham bo’linadigan hodisa ekanligida asl ma’nosini tashkil eta olmaydi. Masalan, “oyog’ini qo’liga olmoq” (*juda tez yugurmoq, yurmoq*)- bu frazeologik chatishma.

Endi lingvokognitiv tadqiqotga shart-sharoit masalasiga kelsak, bu quyidagicha:

1) Ong tuzilmalari bilan til tuzilmalari nutqiy fikrlash faoliyat mobaynida faol ravishda o’zaro ta’sir vaziyatida kuzatiladi.

2) Lisoniy belgi strukturasi bu bilimlarni ifodalash strukturasi.

3) Har bir lisoniy belgi ko’p qatlamlari bilimlarni ifoda ettirish mumkin.

Demak, lisoniy belgi konseptual bilimning xazinalariga “oltin kalit” vazifasini o’taydi. Ammo konseptlarni modellash kognitiv lingvistika darajasidan ko’ra kognitiv psihologiya doirasiga kiradi.

Natijada kognitiv tadqiqotlar xalqning mentalitetidagi xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan. Mentalitet deb esa ongning kognitiv qoliplarining majmuasiga bog’liq bo’lgan dunyo qilib qarash va anglashning o’ziga xos usulidir. Ushbu qoliplarga umummilliy, guruhiy(ya’ni ijtimoiy, yoshga bog’liq bo’lgan, kasbiy, genderli va boshqa guruhlarga xos hamda etnik(shaharli, viloyatli va h.z.) turlari kiradi.

Shunday qilib, kognitiv lingvistika ikki asosiy muammolari echimiga qaratilgan:

1) Til-alloqaning asosiy vositasi bo’lgan holda aloqa jarayonida umumiyligi kognitiv mehanizmlarini til orqali qanday anglanadi. Bularni echish uchun quyidagi sa’i-harakatlar qilingan.

-kelishik grammatiskası(*Ch.Fillmor va b.*)

-leksik-kelishik grammatiskası(*S.Starosta*)

-kognitiv grammatica(*J.Lakoff va H.Tompson*)

-Geshtaltlar nazariyasi

-kognitiv grammatica(*R.Longakker*) yoki “masofa grammatiskası.

Savollar:

1. Lingvistik kompetensiya nimadan iborat?

2. til faolligi tushunchasiga izoh bering.

3. Matnni indekslash nimani bildiradi?

4. Prototipi yondashuvlarga misol keltiring.

5. “Freym” deganda nimalar tushuniladi?

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. T. 2002

2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik, T.2006

3. Алиференко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке, Москва, 2005

4. Шахнарович А.М., Голод В.Г. Когнитивные и коммуникативные компоненты речевой деятельности/ Вопросы языкознания, 1986, №2

Internet saytlari:

1.www.google.com

2.www.psихолингвистики.ru

3.www.kognitive lingistics.ru

4.www.communicativelingistics

Mustaqil ish topshiriqlari:

1.Psiholingvistika yo’nalishlarining o’ziga xosligini tavsiflab bering.

2.Interiorizatsiya va eksteriorizatsiya jarayonlarini qisqacha tavsiflab bering.

3.Kognitiv lingvistikating asosiy tushunchalarining mazmunini bayon qilib bering.

4.Konseptlар turlarini tavsiflab bering.

7-Mavzu: Aloqa va amaliyotga yo’naltirilgan yangi metodlar

Darsning o’quv maqsadi: eng yangi kommunikativ turga ega bo’lgan metodlar haqida to’liq va qisqacha tasavvur kasb etish.

Reja:

1.Kommunikativ lingvistika

2.Amaliy lingvistika

Tushuncha va tayanch iboralar:

Nutqiy aloqa, kod, nutqiy akt, lokutiv, illokutiv, perllokutiv, boshlang’ich matn, yakuniy matn, avtomatik tarjima.

Kommunikativ lingvistika zamirida kommunikativ birlik bo’lib A.Hojiev ta’kidlaganidek “nutqiy aloqa birligi-mustaqil holda fikr ifodalay oladigan nutq birligi. Asosiy nutqiy aloqa birligi gapdir”.⁹ Gap esa uning tarkibidagi so’zlarning leksik-semantik yig’indisi bo’lmasdan maxsus sintaktik ma’noga egadir. Gapning semantic strukturasiga uch xil zaruriy komponentdan iborat-nominatsiya (ya’ni Hojievga asosan tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliliklarni hosil qilish), predikatsiya (gapda fikr mazmunining ob’ektiv voqelikka nisbat berilishi) va lokatsiya(so’zlovchiga nisbatan nomlangan hamda vaqt va masofada nisbatlangan ma’lumotni joylashtirish)lardan.


⁹ O’sha asar, 71-71 betlar.

Shu komponentlarga tayangan holda semantik strukturering voqeaviy(событийный), mantiqiy(логический) va baholovchi (оценочный) komponentlari shakllanadi.

Nutqning kommunikativ birliklari sifatida esa bayon(высказывание), diskurs, nutq akti, nutq janri, mantiqiy strategiya va nutqiy taktika ajratiladi.
Insoniy kommunikatsiya asoslari

Axborot -1

Kodlash



So'zlovchi (sub'ekt-1) axborot-1 deb atalgan hodisani nutqiy apparat orqali signalga aylantirib, bu signal aloqa kanali orqali uzatilib sub'ekt-2 deb ataluvchi tinglovchining tinglash organlari orqali qabul qilinib, buni kodlashtirib, axborot-2ga aylantiradi.

Nutqiy akt deb kommunikatsiya(aloqa)ning asosiy birligi hisoblanadi va aslida jarayon aspektidagi fikrdir.


Bu hodisa uch sathdagi tuzilma bo'lib, birinchisi- lokutiv(локутивный) ya'ni nutqiy muloqotda qo'llanadigan til vositalariga munosabatda bo'ladi. Ikkinci- illokutiv(иллокутивный) ya'ni aloqa jarayonining maqasadi va shart-sharoitlariga nisbatan turuvchi, uchinchisi- perlokutiv (перлокутивный) kommunikativ aloqa natijalariga nisbatan turuvchi.


Demak, nutqiy aktini bajarish uchun bo'linuvchi tovushlarni talaffuz etib, ushbu til grammatikasi qoidalariga asosan so'zlardan fikr yaratish, uni bayon etish-ya'ni lokutsiyani bajarish. So'ngra nutqni maqsadga yo'naltirish-illokatsiya va nihoyat tinglovchilarda aniq javobiy harakatlarni kasb etish-perlokutsiya.

Nutqiy aktlar tizmasi esa diskurs(ya'ni bog'langan matn)ni tashkil etadi. Nutqiy janr- matn tuzilishining turg'un tematik, tarkibiy va uslubiy turi.

Nutqiy strategiya va taktika deganda bular matn yaratish jarayonining nutq akti va janrida qaraganda yuqoriq sathdagi birliklar. Strategiya bu muloqotning bosh yo'naliishi va asosiy vazifasini belgilasa, taktika- bu strategiya ko'lamidagi echiladigan muammoni echish yo'llaridan biridir.

Nutqiy faoliyatning chizmasiga kelsak, buning asosiy xusussiyat va munosabatlari quyidagicha tasavvur etiladi.





Amaliy lingvistika bilimlarni taqdim etish shakli dunyo manzarasini modellash bo'lib, buni yaxlid yo bo'laklangan holda ko'rsatishdan iborat, chunki har bir tushunchaning shakli bu tabiiy tilning belgilaridir. Binobarin, terminlar tizimini strukturshtirish ya'ni bilimlarni modellashdir. Bu maqsadga etishish uchun terminlar tizimlari tabiiy tilning morfologik va sintaktik kichik tizimlari bilan uzviy holda o'zaro ta'sir munosabatida bo'lganligini aks ettiruvchi ilmiy matn xizmat qiladi. Shu o'zanda matnni tahlil etish bilan bog'langan amaliy lingvistikating eng muhim vazifasi electron-hisoblash mashina uchun matn ma'lumotlar vazifasini yaratish. Bu baza avtomatlashgan kutubxona fondlari singaridir. Bu vazifaga tayangan holda quyidagilarni hosl qilish mumkin: 1) tegishli matnning barcha so'z shakllari to'liq ro'yhati. 2) matnning morfologik kichik tizimidagi elementlarni. 3) electron hisoblash mashinaga kiritilgan ushbu yoki barcha matnlar ichidagi har bir so'z shaklining necha marta uchraganligi. 4) ushbu so'z shakllarining adreslari (bob, band va bet sonlari). 5) harf va harf birikmalarini ya'ni grafik belgilari bo'lmish vositalar chastotasini. 6) har bir so'z shaklining qo'rshovi(kontekst). 8)ters lug'atini. 9) matnning to'liq shaklini.

Kompyuter lingvistikasidan tashqari amaliy lingvistika doirasiga amaliy atamashunoslik, lug'atshunoslik, avtomatik tarjima, referat tuzish, uslubini o'lchash(стилеметрия), shifrlarni echish va b. kiradi.

Amaliy termin (atama)shunoslik quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi-lug'atshunoslik terminologiyasi (bunga o'z navbatida maxsus lug'atning nazariya va amalaiyoti, bir tilli, tarjima lug'atlar, chastota lug'atlari, informatsiya qidiruv tezariuslar, mashina lug'atlar va h.z.), terminlar tizimlarini umumlashtirish, terminlarni tarjima qilsih va h.z.

Avtomatik tarjima tizimlarini ishlab chiqishda iki bosqich ajratiladi.

Birinchi bosqichida avtomatik lug'atlar tuzish, vositachi tilni ishlab chiqish, grammaticani formallashtirish, leksik va sintaktik omonimiyani bartaraf etish, frazeologik chatishmalarni qayta ishlab anglash va h.z.

Ikkinchi bosqichda tezlikda rivojlanib amaliyotga kirib borayotgan yo'nalishlar bo'lmish grammaticalarning nazariy ko'paytirish modellari, Grammatik tobeliklar modellari hamda bevosita tarkiblovchilar va transformasion grammatica modellari yo'nalishlarining taraqqiyoti namoyon bo'lmoqda. "Ma'no- matn" modeli bo'yicha semantika izlanishlari faollashib bormoqda.

Yangi hozirgi bosqichda esa vositachi tilni qollash bilan bog'langan avtomatik tarjimani takomillashtirish yuzaga kelmoqda. Bu jarayon oddiyashgan holda quyidagi chizmada ko'rsatiladi. Boshqacha aytganda, avtomatik tarjima natijasida boshlang'ich x matnni qayta so'zlashga erishiladi. Shu tarjima jarayoni:

X tildagi boshlang'ich matn

Tahlil (analiz)

X ichki taqdirdagi til matni

X ni qayta ishlab o'zgartirish
(преобразование)

X tildagi yakuniy matn

Sintez

X ichki taqdirdagi til matni

X ni qayta ishlab o'zgartirish

Matn ma'nosi

Savollar:

1. "Nutqiy aloqa" deb nima tushuniladi?
2. "Kod" tushunchasiga lingvistik izoh bering.
3. Yuqorida berilgan jadvallarni izohlab bering.
4. "Perlokutiv" atamasiga izoh bering.

Tavsiya etiladigan qoshimcha adabiyotlar:

- 1.Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T. 2002
- 2.Фрумкина П.М. Психолингвистика, Москва,2001
3. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике, Воронеж, 2001
4. Шахнарович А.М., Голод В.Г. Когнитивные и коммуникативные компоненты речевой деятельности/ Вопросы языкоznания, 1986, №2
5. Прикладное языкоzнание. Учебник/Бондарко Л.В. и другие Санкт-Петербург,1996

Internet saytlari:

- 1.www.google.com
- 2.www.psiholingvistik.ru
- 3.www.kognitive lingvistics.ru
- 4.www.communicativelingvistics

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Kommunikativ lingvistikating nutqiy akt kabi tushunchalarini izohlab bering.
- 2.Amaliy lingvistika mazmunini ochib bering.

- 3.Matn ma'lumotlar ba'zasi tushunchasiga izoh bering.
 4.Avtomatik tarjima rivoqlanish bosqichlari xususida.

Reyting ishlansasi

| Maksimal ball | Maksimal ballning nazorat turlari bo'yicha taqsimoti | | | Qoniqarli | Yaxshi | A'lo |
|---------------|--|------------|--|-----------|------------|-------------|
| | | | | 55-70% | 71- 85% | 86-100% |
| 100 | JB 40 | 1-JB 20 | | 11,0 | 14,2 | 17,2 |
| | | 2-JB 20 | | 11,0 | 14,2 | 17,2 |
| | OB 30 | 1-OB 15 | | 8,2 | 10,7 | 12,9 |
| | | 2-OB 15 | | 8,2 | 10,7 | 12,9 |
| | YaB 30 | 30 | | 16,4 | 21,2 | 25,8 |
| | JAMI 100 | 100 | | 55 | 71 | 86 |
| 1-semestr | | 19h=9+10 | | JB - 15b | | OB - 15b |
| 2-semestr | | 19h=9+10 | | JB - 15b | | OB - 15b |
| Jami | | | | 30 b | | 30 b |
| | | | | 30 b | | 10 b |

| 1- semestr | | | | | | 2 - semestr | | | | | |
|--------------|----|----|--------------|----|----|--------------|----|----|--------------|----|----|
| 9 hafta | | | 10 hafta | | | 9 hafta | | | 10 haftha | | |
| Hafta lar | JB | MT |
| 1 | 1 | | 1 | 1 | | 1 | 1 | | 1 | 1 | |
| 2 | 1 | | 2 | 1 | | 2 | 1 | | 2 | 1 | |
| 3 | 1 | | 3 | 1 | | 3 | 1 | | 3 | 1 | |
| 4 | 2 | | 4 | 1 | | 4 | 2 | 2 | 4 | 1 | |
| 5 | 2 | 2 | 5 | 1 | 2 | 5 | 2 | | 5 | 1 | 2 |
| 6 | 2 | | 6 | 2 | | 6 | 2 | | 6 | 2 | |
| 7 | 2 | | 7 | 2 | | 7 | 2 | | 7 | 2 | |
| 8 | 2 | | 8 | 2 | | 8 | 2 | | 8 | 2 | |

| | | | | | | | | | | | |
|---------|---------|---------|---------|------|---------|---------------|---------|------|---------|------|-----|
| 9 | 2 | 3 | 9 | 2 | | 9 | 2 | 3 | 9 | 2 | |
| | | | 10 | 2 | 3 | | | | 10 | 2 | 3 |
| | 15b. | 5b. | | 15b. | 5b. | | 15b. | 5b. | | 15b. | 5b. |
| Jami | 20 ball | Jami | 20 ball | Jami | 20 ball | Jami | 20 ball | Jami | 20 ball | | |
| 1ball | 2ball | 3ball | 5ball | | 10ball | o'zlashtirish | | | | | |
| 0,9-1 | 1,7-2,0 | 2,6-3,0 | 4,3-5 | | 8,6-10 | "a'lo" | | | | | |
| 0,7-0,8 | 1,4-1,6 | 2,1-2,5 | 3,6-4,2 | | 7,1-8,5 | "yaxshi" | | | | | |
| 0,5-0,6 | 1-1,3 | 1,7-2,0 | 2,8-3,5 | | 5,5-7,0 | "qoniqarli" | | | | | |
| 0 - 0,4 | 0 -0,9 | 0-1,6 | 0-2,7 | | 0-5,4 | "qoniqarsiz" | | | | | |

Joriy nazoratni baholash mezoni

| Mezonlar | 1 ball | 2 ball | 3 ball |
|--|--------|----------|--------|
| 86 – 100 (a'lo) | | | |
| <ul style="list-style-type: none"> Talaba mavzuning mazmuni hamda maqsad va vazifalarini atroflicha yorita olsa. Mavzu bo'yicha mantiqiy yondashgan holda o'z fikrini bildirsa. Berilgan mavzu ahamiyatini ham nazariy ham amaliy jihatdan puxta o'zlashtirsa. Bayon etish doirasida hech qanday chalkashliklarga yo'l qo'ymasa. Mavzuga berilgan tayanch iboralarni maqsadga muvofiq qo'llay olsa. Berilgan savollarga aniq hamda xatosiz havob bera olsa. Uy vazifalarini to'liq puxta bajara olsa. | 0,9-1 | 1,7- 2,0 | 2,6- 3 |
| 71 –85 (yaxshi) | | | |

- Talaba mavzuning mazmuni umumiy ravishda tushunsa.
- Konspektini puxta o'zlashtira olsa.
- Mavzuni bayon qilish jarayonida umumiy tasavvurga ega bo'lsa.
- Berilgan topshiriqni juz'iy kamchiliklar bilan bajarsa.
- Mavzu bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa.
- Mavzuni fikrlashida ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa.

55 -70 (qoniqarli)

- Mavzu haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa.
- Mavzuni talab doirasida bayon eta olmasa.
- Berilgan savollarga mujmal va chalkash javob bersa.
- Berilgan topshiriqni qo'pol xatolar bilan bajargan bo'lsa.
- Mavzu doirasidagi konspektni puxta bajarmagan bo'lsa

0 -54 (qoniqarsiz)

- Mashg'ulotga umuman tayyor bo'lmasa.
- Berilgan topshiriqda deyarli to'g'ri variantlar uchramasa.
- Uyga berilgan vazifa boshqalardan ko'chirilganligi bilinib tursa.
- Savollarga umuman javob bera olmasa.
- Mavzu bo'yicha hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa.

| | | |
|-----------|-----------|-----------|
| 0,7 – 0,8 | 1,4 – 1,6 | 2,1 – 2,5 |
|-----------|-----------|-----------|

Joriy baholash uchun quyidagi so'rov turlarini belgilash mumkin:

1. Matn bilan ishlash.

- Rejada belgilangan hajmdagi matnlarni tez va ifodali o'qish
 - So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish;
 - Eshitib tushunish (audiovanie)
 - Til materiallari (talaffuz, leksika, grammatika)
 - Nutq faoliyati turlari (o'qish, gapirish, yozish va eshitib tushunishga)ga alohida e'tibor qaratilishi nazarda tutilgan.
2. Test (rejada belgilangan Grammatik mavzu qisman yoki to'liq o'tilganidan so'ng)

3. Bayon yoki diktant.

4. Og'zaki so'rov (suhbat)

Oraliq nazoratni baholash mezoni

Bir semester davomida ikki marta rejada tasdiqlangan haftalarda o'tkazilib, yozma, og'zaki va test asosida bo'lib o'tadi.

Bu orqali nazorat uchun quyidagi so'rov turlarini qo'llash mumkin:

1. Yozma ish.

(Yozma ish asosan talabaning Grammatik mavzuni o'zlashtirganiga, 10 -12 ta gap (yoki 10 -12 ta gapdan iborat matn) ni ona tilidan hindiy tilidan va hindiy tilidan ona tiliga tarjima qilishdagi ko'nikma hosil bo'lganiga qaratiladi)

- Ikki tomonlama tarjima;
- mavzuga oid gaplar (matn)ni hindiy tiliga tarjima qilish
- mavzuga oid gaplar (matn)ni o'zbek(rus) tiliga tarjima qilish.

2. Test.

(Test savollari talabaning nazariy va amaliy bilimlarini tekshirishda qo'llaniladi va mavzularning hajmidan kelib chiqqan holda 15 -25 savollardan iborat bo'ladi.)

3. Og'zaki so'rov.

- Grammatik mavzuni topshirish;
- O'tilgan mavzular yuzasidan savol – javob.

Har bir oraliq nazorat turi uchun ajratilgan maksimal ball – 10 ball.

| Mezonlar | Yozma ish (tarjima) | Og'zaki(yozma) so'rov | Test |
|-----------------------|---|--|--|
| 8,6 - 10 “a’lo” | <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuga oid gaplar (matn)ni hindiy tillaridan o'zbek/rus tiliga tarjimasi to'liq va variantga mos bo'lsa, • Leksik boylik mavjud bo'lsa; • 2-3 ta qo'pol bo'limgan orfografik, Grammatik yoki | <ul style="list-style-type: none"> (nazariy savollar bo'yicha) • Mavzuning mazmuni to'liq aks ettirilsa. • Mavzu nazariy va amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa. • Mavzuni o'zlashtirishda ijodiy yondashuv va mantiqiy ketma -ketlik mavjud bo'lsa, • Bayonda ilmiylik bo'lib, savollarga javoblar aniq va lo'nda berilsa; • Misollar keltirishda mushohada qilish va mustaqil fikrash sezilib tursa. • (matn tarjimasi) • Matn tarjimasi to'liq va to'g'ri qilingan bo'lsa; | 9 -10 ta to'g' ri javo b |

| | | | |
|-----------------------------|--|--|---|
| | stilistik xatolar uchrasa. | <ul style="list-style-type: none"> • Tarjima ravon bo'lsa; • Tuzilgan savollar matnnning mazmunini to'liq qamrab olgan bo'lsa; • Leksik va frazeologik birliklar o'z o'rniда qo'llanilgan bo'lsa; • Tayanch iboralardan maqsadli foydalaniłgan bo'lsa. | |
| 7,1 – 8,5 “yaxshi” | <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuga oid gaplar (matn)ni hindiy tilidan o'zbek tiliga tarjimasi to'liq va variantiga qisman mos(to'liq emas, lekin variantiga mos); • Leksika faqat o'tilgan mavzular doirasida bo'lsa; • 4-5 ta orfografik, Grammatik yoki stilistik xatolar bo'lsa. | <ul style="list-style-type: none"> (nazariy savollar bo'yicha) • Mavzuning mazmuni bo'yicha tasavvurga ega bo'lsa • Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati haqida umumiy tushunchasi bo'lsa; • Mavzuni o'zlashtirishda ijodiy yondashuvga va mantiqiy ketma- ketlikda qo'llashga harakat qilingan, biroq yetarli darajada bo'lmasa; • Savollarga to'g'ri va qisqa javoblar berilsa; • (matn tarjimasi) • Matn tarjimasida qisman ju'ziy xatolar uchrasa; • Tarjimada matndan uzoqlashish mavjud bo'lsa; • Tuzilgan savollarda matnnning umumiy(qisman) mazmuni yoritilan bo'lsa; • Leksik va frazeologik birliklar qisman yod olingen bo'lsa. | 7 -8 ta to'g' ri javo b |
| 5,5 – 7,0 “qoniqarli” | <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuga oid gaplar (matn)ni hindiy tilidan o'zbek tiliga tarjimasi chala qilingan bo'lsa; • 6-7 ta orfografik, Grammatik yoki stilistik xatolar bo'lsa. | <ul style="list-style-type: none"> (nazariy savollar bo'yicha) • Talaba mavzu haqida umumiy tushunchaga ega; • Mavzu juda tor doirada yoritilib, bayonda ayrim xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa; • Savollarga mujmal, ba'zan chalkash javoblar berilsa; • Misollar bilan mavzu tasdiqlanmasa. • (matn tarjimasi) • Matn tarjimasida bir qancha xatolar mavjud bo'lsa; • Tarjima chala qilingan va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; | 5 -6 ta to'g' ri javo b |

| | | | |
|--------------------------|---|---|------------------------------------|
| | | <ul style="list-style-type: none"> Tuzilgan savollar matnning ayrim gaplariga mos bo'lsada, xatolar uchrasa, So'z va iboralar chala va xatolar bilan yod olingan bo'lsa. | |
| 0 – 5,4 “qoni qarsiz” | <ul style="list-style-type: none"> Mavzuga oid gaplar (matn)ni hindiy tilidan o'zbek tiliga tarjimasi chala yoki tarjima boshqalardan olinanligi sezilib tursa; 8-10 ta orfografik, Grammatik yoki stilistik xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa. | <ul style="list-style-type: none"> (nazariy savollar bo'yicha) Mavzu haqida hech qanday tasavvur va tushunchaga ega bo'lmasa; Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa; Mavzuga doir savollarga javob uchramasa; (matn tarjimasi) Matn tarjimasi mayjud bo'lmasa; Savollar tuzilmagan va so'z, iboralar yod olinmaganligi aniqlansa. | 0 -4 ta to'g' ri javob |

Yakuniy nazoratni baholash mezoni (30 ball)

Yakuniy baholash semestr oxirida bir marta o'tkazilib, yozma yoki og'zaki ko'rinishida bo'ladi hamda quyidagi so'rov turlarini o'z ichiga oladi:

1. Ikki tomonlama tarjima

Ona tilidan hindiy (ona) tiliga tarjima

- grammatik mavzuga oid
- leksikaga oid

2. Tanish leksikaga oid notanish matn bilan ishlash

- yozma tarjima qilish
- mavzuga oid savollar (yoki dialog) tuzish
- grammatik tahlil qilish va sharhlash

3. Diktant (orfografik, grammatik, stilistik qoidalar hamda frazeologik yoki leksik birliklari yuzasidan)

4. Test. (test savollari talabaning nazariy va amaliy bilimlarini tekshirishda qo'llaniladi va mavzularning hajmidan kelib chiqqan holda 15 savolardan iborat bo'ladi)

Yakuniy nazorat uchun belgilangan 30 ball quyidagicha taqsimlanadi:

| | |
|-----------|--------------|
| 25,8-30 | "a'lo" |
| 21,2-25,7 | "yaxshi" |
| 16,6-21,1 | "qoniqarli" |
| 0-16,5 | "qoniqarsiz" |

Yuqorida zikr etilgan so'rov turlari quyida ko'rsatilgan mezonlar va ko'rsatgichlar asosida baholanadi:

| Mezonlar | Yozma ish (tarjima) | Og'zaki (yo'zma) so'rov | Diktant (15 ta gapdan iborat bo'lib, har bir gapga 1 ball) | Test (15 ta savol bo'lib har bir savolga 1 ball) |
|-------------------|--|--|---|---|
